



**KICHIK BIZNES SUB'EKTLARINI KREDITLASH
KAMBAG'ALLIKNI QISQARISH YO'LI SIFATIDA**

Avlayev Shaxzod Shuxrat o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznes sub'ektlarini kreditlashning kambag'allikni qisqartirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi roli, ularni kreditlash orqali yangi ish o'rinlari yaratish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, kichik biznes sub'ektlarini kreditlash jarayonidagi mavjud muammolar, bu muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar va tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan yengilliklar tahlil etilgan. Kichik biznesning kreditlash tizimi orqali kambag'allikni qisqartirishning samarali strategiyalari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, kreditlash, kambag'allikni qisqartirish, iqtisodiy rivojlanish, ish o'rinlari yaratish, tijorat banklari, moliyaviy resurslar, ijtimoiy barqarorlik, kredit tizimi, iqtisodiy o'sish

Kirish. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) iqtisodiyot tarmoqlarida yangiliklarni boshqarishda kichik va o'rta biznes sub'ektlarning barcha iqtisodiy tizimlarda muhim dinamik elementni tashkil etishini tan oldi. Barqaror iqtisodiy o'sish, bandlikni yaratish va ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag'allikni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.

UNESCAP ma'lumotlariga ko'ra, kichik va o'rta biznes sub'ektlari Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyoda, shuningdek, Yaponiyada barcha firmalarning 99 foizini tashkil qiladi⁸⁶. Kichik va o'rta biznes mintaqada ish bilan ta'minlanishning eng katta manbaidir, shu jumladan mintaqaning ish bilan ta'minlanishining to'rt dan uch qismini tashkil etadi.

Kichik va o'rta biznes korxonalari dunyoda mavjud firmalarning 90 foizini tashkil etadi⁸⁷. Xalqaro Valyuta fondi va McKinsey&Company xalqaro konsalting kompaniyasi bilan birgalikda olib borgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, dunyo bo'yicha jami rasmiy va norasmiy mikro, kichik va o'rta korxonalar 420-510 milliontani tashkil etishini, shundan 365-445 milliontagacha bo'lgan firmalar

⁸⁶ <http://www.boj.or.jp/en/statistics/dl/depo/kashi/index.htm/> маълумотлари асосида тайёрланди.

⁸⁷ www.doingbusiness.org Beck, Thorsten. 2013. "Bank Financing for SMEs—Lessons from the Literature." National Institute Economic Review 225 (1): R23-R38.





rivojlangan davlatlarda joylashganligini tadqiq etishdi⁸⁸.

Shunga qaramay, kichik va o'rta biznes korxonalari yirik kompaniyalarga qaraganda ko'proq moliyaviy to'siqlarga duch kelmoqdalar - ular tashqi moliyalashtirishdan kamroq foydalanadilar va yuqori tranzaksiya xarajatlari va yuqori riskli sug'urta mukofotlariga duch kelishadi. Dunyo bo'yicha qariyb 70 foizga yaqin kichik va o'rta biznes sub'ektlari xalqaro moliya institutlari tomonidan moliyalashtirilmaydi, 15 foizi esa umuman moliyalashtirilmaydi. Rivojlangan davlatlarning YaMMning 14 foizi yoki 2 trl. AQSh dollari kichik va o'rta biznes sub'ektlarining moliyalashtirilishiga qaratilgan.

Rivojlangan davlatlar tajribasida ham, kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish bilan bog'liq muammolar mavjudligi kelgusida bu boradagi ishlarni takomillashtirishning zaruratini keltirib chiqaradi.

Butun dunyoda kichik va o'rta biznesni kreditlashda tijorat banklari va kredit uyushmalari an'anaviy tarzda kreditlash usullaridan foydalanib keladi. Jahon banki tomonidan 45 ta davlatning 91 ta tijorat banklarida olib borilgan tadqiqotlar natijasida kichik va o'rta biznes segmenti bank uchun foydali mijoz ekanligi ma'lum bo'ldi, lekin rivojlanayotgan davlatlarda makroiqtisodiy beqarorlik, kichik va o'rta biznes sub'ektlarini rivojlangan davlatlarning kichik va o'rta biznes sub'ektlari bilan taqqoslaganda asosiy muammo sifatida ularni moliyalashtirish ko'zga tashlanadi.

Iqtisodiy rivojlanayotgan davlatlar banklari, katta korxonalarga qaraganda kichik va o'rta biznes sub'ektlariga ko'proq duch keladi, lekin kichik va o'rta biznes sub'ektlarini investitsiyaviy kreditlashda kredit portfelida kam ulushga ega, shuningdek kichik va o'rta biznes sub'ektlarini kreditlash baland foizlar evaziga ta'minlanmoqda.

Mamlakatimizda esa kichik biznes sub'ektlarini kreditlash borasida barcha to'siqlar olib tashlanmoqda. Xususan, kreditlash bo'yicha Jahon bankining "Doing business" ko'rsatkichlariga ko'ra 190 ta davlat orasidan 55 o'rinni egallaganligi ham bu boradagi ishlarimizning qanchalik rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Agar rivojlanishi bir muncha sust bo'lgan, Keniya, Nigeriya, Ruanda, Janubiy Afrika va Tanzaniya davlatlarining kredit portfelida kichik va o'rta biznesni kreditlash ulushiga nazar solinsa ularda 5 foizdan 20 foizgacha o'zgarib turadi. Gana davlatida esa kichik va o'rta biznesga berilgan kreditlar jami kredit portfellingning $\frac{1}{4}$ qismidan ham kamrog'ini tashkil etadi, shuningdek, firmalarning aktivlaridan sezilarli foydalanishi ham bankning qarzdorlik darajasiga bog'liqdir⁴⁵. Olib borilgan

⁸⁸ www.doingbusiness.org Stein, Peer, Tony Goland and Robert Shiff. 2010. "Two Trillion and Counting: Assessing the Credit Gap for Micro, Small and Medium-size Enterprises in the Developing World." Working Paper 71315, World Bank, Washington, DC.





tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, banklarning strategik biznes yuritishning negizi bo'lgan kichik va o'rta biznes sub'ektlari bilan ishlashni oldilariga katta maqsad qilib qo'yishi lozimligini ko'rsatadi. Haqiqatdan ham, banklar uchun kichik va o'rta bizneslarni odatiy kreditlash muhim yo'nalishdir shuningdek, kichik va o'rta bizneslarga xizmatlar hajmini oshirish uchun yangi texnologiyalarni qo'llash, biznes modellaridan foydalanish va risk menejmentidan samarali foydalanish bank mijozlariga keng va ko'p tarmoqli xizmatlar taklif qilish imkoniyatini beradi⁸⁹. Bu banklarning kelgusida mijozlar bazasini yaxshilash shuning barobarida bank daromadining oshishiga olib keladi. Banklar bilan birgalikda kichik va o'rta biznes sub'ektlarini kreditlash jarayonlarida mikrokredit tashkilotlari ham muhim o'rin tutadi.

Mikrokredit tashkilotlari kichik biznes sub'ektlarini mikrokreditlashda yordam berib, ayniqsa yangi tashkil etilayotgan tadbirkorlarga qishloq joylarda shuningdek, kam ta'minlangan oilalarni kreditlashda katta o'rin tutadi. Bu mikrokreditlar ma'lum almashaoladigan ta'minot evaziga beriladi (misol uchun guruh kafolati) bu mijozlarning kreditni o'z vaqtida qaytarishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shamsiev, F. (2021). *Kichik biznesni rivojlantirish va kreditlash: Kambag'allikni qisqartirishda roli*. Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti.
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2020). *Kichik biznesni moliyalashtirish va kreditlash tizimi*. Toshkent: Moliya vazirligi nashriyoti.
3. Soliev, S. (2019). *Kichik biznes kreditlashining iqtisodiy ahamiyati va strategiyalari*. Toshkent: "Iqtisodiy tahlil" nashriyoti.
4. Karimov, S. (2020). *Kambag'allikni qisqartirishda kichik biznesning o'rni*. Toshkent: "Iqtisodiy rivojlanish" nashriyoti.
5. World Bank. (2021). *Small and Medium Enterprises: Financing for Growth and Poverty Reduction*. Washington D.C.: World Bank Publications.
6. International Finance Corporation (IFC). (2020). *Financing Small Businesses: A Key to Reducing Poverty and Promoting Growth*. Washington D.C.: IFC Publications.
7. ADB (Asian Development Bank). (2020). *Financing Small Businesses for Economic Growth and Poverty Alleviation*. Manila: Asian Development Bank.
8. Xolmurodov, A. (2018). *Kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash: Amaliy yondashuvlar*. Toshkent: "Iqtisodiy fikr" nashriyoti.

⁸⁹ www.elsevier.com De la Torre, Augusto, María Soledad Martínez Pería and Sergio L. Schmukler. 2020. "Bank Involvement with SMEs: Beyond Relationship Lending." *Journal of Banking & Finance* 34 (9): 2280-93.

